

RAQAMLI DAVRDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA SAQLASH YO'LLARI**Sevinchxon Turdiboyeva**

Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Malohat Xidirova

Ilmiy rahbar. Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti.

xidirovamalohat848@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18965762>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqamli davr sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va ularni ta'lim jarayonida saqlash hamda rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yoshlarning dunyoqarashi, muloqot shakllari va bilim olish uslublari o'zgarib borayotgani, bu jarayon qadriyatlarning yo'qolishiga emas, balki ularning yangi mazmun va shakllarda namoyon bo'lishiga olib kelayotgani asoslab beriladi. Ta'lim tizimi ushbu o'zgarishlarni inobatga olgan holda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotdan ongli foydalanish, ma'naviy mezonlarga tayangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishi zarurligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: transformatsiya, qadriyat, modernizatsiya, gadjet, virtual makon, milliy identitet.

Har bir millat, elatlarning o'ziga xos, bir-birini takrorlamas turli xil qadriyatlari mavjud.

Qadriyatlarning xilma-xilligi millatlarni bir-biridan go'zal tarzda ajratib turadi.

Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o'zbekcha mehmondo'stlik kabilar shular jumlasidandir. Ushbu qadriyatlar asrlar o'tsada o'zgarmay, bir millatning o'zligini ko'rsatib, xalqlar tomonidan qadrlanib kelinmoqda.

Etnopedagog G.N.Volkovning "Har bir xalqning kuchli va o'ziga xos jihatlarni ta'kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas", - degan so'zlari ayni shu fikrning tasdig'i desak adashmagan bo'lamiz, ammo bugungi zamon — bu texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan, insoniyat tafakkuri va turmush tarzini tubdan o'zgartirayotgan murakkab hamda serqirra davrdir. Raqamli texnologiyalar, internet makoni, global axborot oqimi inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Endilikda inson nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki virtual makonda ham yashaydi, fikrlaydi, muloqot qiladi va o'zini namoyon etadi.

Mazkur jarayon tabiiy ravishda insoniyat yaratgan qadriyatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Avvallari qadriyatlar avloddan-avlodga asosan oila, mahalla, ustoz-shogird an'analari orqali uzatilgan bo'lsa, bugungi kunda ular raqamli vositalar orqali yangi shakl, yangi mazmun kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — yosh avlodni texnologiyalar bilan hamnafas holda tarbiyalash barobarida, ularning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab qolishdan iboratdir.

Raqamli muhit inson tafakkuriga o'ziga xos tezkorlik, harakatchanlik va moslashuvchanlik olib kirdi. Axborotning nihoyatda katta hajmda va soniyalarda tarqalishi yoshlarning dunyoni idrok etish uslubini o'zgartirdi. Endilikda ular ma'lumotni uzoq izlab o'tirmaydi, balki tayyor shaklda qabul qiladi. Bu esa bilim olish jarayonining mazmunini emas, balki shaklini o'zgartirib yubordi.

Virtual muloqotning kengayishi natijasida insonlar o'rtasidagi aloqa yangi ko'rinishga ega bo'ldi. Yozma va qisqa shakldagi suhbatlar jonli muloqotning o'rnini tobora ko'proq egallamoqda. Natijada hissiy yaqinlik, sabr bilan tinglash, suhbatdosh fikriga hurmat bilan yondashish kabi fazilatlar yangi pedagogik yondashuvni talab etadigan masalaga aylanmoqda.

Biroq bu o'zgarishlarni faqat salbiy jarayon sifatida baholash biryozlama qarash bo'lar edi. Chunki har bir tarixiy davr o'zining yangi madaniyatini yaratadi. Raqamli davr ham insoniyatni yangi bilim, yangi imkoniyatlar, yangi tafakkur shakllari bilan boyitmoqda. Bu jihat davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham quyidagicha ta'kidlanadi: "Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari asrida raqobatbardosh bo'lish uchun yoshlar zamonaviy bilim va kasblarni egallashi, yangicha fikrlashi zarur". Mazkur fikr jamiyat taraqqiyotida raqamli bilimlar va innovatsion tafakkur hal qiluvchi omilga aylanayotganini anglatadi. Ya'ni raqamli muhit insonni qadriyatlardan uzoqlashtirish uchun emas, balki ularni yangi sharoitga ongli ravishda rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim. Endi o'ylab ko'raylikchi, agar raqamli muhitda sog'lom tafakkur shakllantirilsa-yu, ushbu jarayon onlayn platformalar orqali bir millatga xos go'zal tarbiya ko'rinishlarini global miqyosga chiqarish imkoniyatini bizga taqdim etsa, yoki bugun boshini gadgetlardan olmayotgan yoshlarimizga aynan ular foydalanayotgan barcha texnologiya turlari orqali tasviriy, emotsional videoroliklar, multimedialar ishlab chiqarsa, bu 21-asr uchun xos va mos yondashuv bo'lmaydimi? Albatta, yangi avlod vakillari uchun yagona qadriyatlarimizni mustahkamlash yo'li bo'lib xizmat qiladi.

Biz zamon bilan hamnafas bo'lishimiz zarur deb tinmay bong uryapmiz. Buning natijasida necha asrlar, yillardan beri ota-bobolarimiz qadrlab, e'zozlab kelayotgan oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiy-estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviy-ruhiy kabi qadriyatlarimiz axborot asriga kelib unga xos tarzda transformatsiyalanyapti. Shu o'rinda bizda "transformatsiyalanish jarayoni nima?" - degan savol paydo bo'lishi mumkin.

Transformatsiya (lotincha transformare — "o'zgartirmoq", "boshqa shaklga keltirmoq") — bu biror hodisa, tizim yoki jarayonning o'z mohiyatini saqlagan holda yangi shakl, mazmun yoki ko'rinishga o'tish jarayonidir. Transformatsiya oddiy o'zgarishdan farqli ravishda, chuqur, tizimli va bosqichma-bosqich kechadi hamda rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi. XX asrda fransuz struktural antropologi K.Levi-Strauss madaniyat va ijtimoiy tuzilmalardagi transformatsiya jarayonlarini o'rganib, tizimli tahlilni fanga olib kirdi. Shuningdek, o'zining "The Savage Mind" asarida "Madaniyat hodisalari va mifologiya — bu inson tafakkurining tizimli tuzilishi bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan shaklini o'zgartiradi, lekin asosiy strukturasi saqlanadi" deb ta'kidlaydi(4).

Qadriyatlar transformatsiya — bu qadriyatlarning yo'qolishi emas, balki ularning zamon ruhiga moslashib, yangicha ifodalanishidir. Masalan, kitobxonlik qadriyati o'z mohiyatini yo'qotgani yo'q, balki elektron kitoblar, audiomateriallar, onlayn ta'lim shaklida davom etmoqda. Ustozga hurmat tushunchasi ham o'zgarib, bilimni mustaqil izlash, mentorlik va hamkorlik ruhida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, P.Sztompka ijtimoiy o'zgarishlar nazariyasida qadriyatlar transformatsiyasini jamiyat rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, qadriyatlar o'zgarishi ijtimoiy moslashuv va modernizatsiya jarayonining ajralmas qismidir.

Har bir jamiyat doimiy harakatda bo'lgan ijtimoiy tizimdir. Fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy munosabatlar, axborot almashinuvi, globallashtirish jarayonlari insonlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartiradi.

Shu sababli qadriyatlar ham o'zgaruvchan hayotga mos ravishda yangi ko'rinishlarga ega bo'ladi. Masalan, avvallari bilim olish ustoz atrofida jamlangan bo'lsa, bugun u raqamli platformalar orqali amalga oshmoqda. Bunda ilmga hurmat qadriyati yo'qolmaydi, balki yangi vositalar orqali davom etadi. Sharq falsafiy tafakkurida ham qadriyatlarning zamonga mos yangilanishi g'oyasi ilgari surilgan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr al-Farobiy inson kamoloti jamiyat va muhit bilan uyg'un holda shakllanishini ta'kidlab, fazilatlar tarbiya jarayonida doimiy takomillashib borishini yozadi.

Unga ko'ra, jamiyat o'zgarsa, tarbiya usullari ham o'zgaradi, ammo ezgulik, ilm va adolat kabi asosiy qadriyatlar o'z mohiyatini saqlab qoladi[2]. Demak, qadriyatlar mutlaq o'zgarmas hodisa emas, balki tarixiy taraqqiyot davomida o'z shaklini yangilab, mazmunan davomiylikni ta'minlaydigan ijtimoiy-ma'naviy tizimdir.

Albatta, ushbu ijtimoiy-ma'naviy tizim shunchaki hosil bo'lib qolmaydi, unga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar mavjud. Ulardan eng muhimi ilmiy-texnologik taraqqiyotdir.

Raqamli texnologiyalar inson faoliyatini tezlashtirib, axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada, bilim olish usullari o'zgardi, mustaqil o'rganish va hayot davomida ta'lim olish tamoyili kuchaydi. Muloqot shakllari ham yangilanib, an'anaviy yuzma-yuz aloqalar bilan bir qatorda virtual kommunikatsiya muhim o'rin egallay boshladi. Bu jarayon tezkorlik, moslashuvchanlik va innovatsion fikrlashni yangi ijtimoiy qadriyat sifatida shakllantirmoqda. Kasb va mehnat haqidagi tasavvurlar ham modernlashib, bitta kasb doirasida qolishdan ko'ra ko'p qirrali kompetensiyalarni egallash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Qadriyatlar o'zgarishiga globallashuv jarayoni ham sezilarli ta'sir qilmoqda. Turli madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi natijasida insonlar boshqa xalqlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu jarayon bir tomondan milliy qadriyatlarni boyitadi, chunki ular yangi mazmun bilan to'ldiriladi, ikkinchi tomondan esa umuminsoniy qadriyatlar — bag'rikenglik, hamkorlik, ochiqlik kabi tushunchalarning ahamiyatini kuchaytiradi. Masalan, xalqaro ta'lim va mehnat migratsiyasi natijasida yoshlar turli madaniy muhitda ishlash va yashash tajribasini orttirib, milliy an'analarni zamonaviy global qarashlar bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda. Shu tariqa madaniy sintez, ya'ni turli qadriyatlarning o'zaro qo'shilishi yuzaga kelmoqda.

Ijtimoiy hayotning modernlashuvi, urbanizatsiya, yangi iqtisodiy munosabatlar va ta'lim tizimidagi yangilanishlar ham insonlarning hayotiy ustuvorliklarini qayta shakllantirmoqda. Jamoaviylik va an'anaviylik bilan bir qatorda tashabbuskorlik, mas'uliyat, raqobatbardoshlik, o'zini rivojlantirishga intilish kabi sifatlar zamonaviy jamiyatda muhim qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'limda esa tayyor bilimni egallashdan ko'ra, uni mustaqil izlab topish, tanqidiy fikrlash va amaliy qo'llash ko'nikmalari yuqori baholanmoqda.

Globallashuv davrida qadriyatlarimizdagi kuzatilayotgan transformatsiyalar o'quvchi-yoshlar ongiga to'g'ri talqin qilinib singdirilmasa, milliy mentalitetni yo'qotish, bu esa o'z navbatida o'zlikni yo'qotish kabi salbiy tomlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat kuzatilmasligi uchun ta'lim tizimi oldida o'quvchini tez o'zgarayotgan ijtimoiy muhitda ongli yashay oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va o'z qadriyatlariga tayangan holda faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirish vazifasi turibdi. Shu sababli zamonaviy tarbiya quyidagi uchta strategik yo'nalishda olib borilishi lozim.

1. Raqamli madaniyatni shakllantirish

Raqamli texnologiyalarni bilish — bu hali madaniyat emas. Raqamli madaniyat deganda insonning axborotdan mas'uliyatli, tanqidiy va maqsadli foydalanish ko'nikmasi tushuniladi.

Buning uchun, informatika, pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha malakali mutaxassislar tomonidan maktablarda keng miqyosda qiziqarli, samarali, seminar, vebinar hamda ko'rik - tanlovlar o'tkazilishi lozim. Natijasida esa, o'quvchi yoshlar axborotni ishonchli va ishonchsiz, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish, texnologiyalar oldida vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Psixolog Lev Vigotskiy ta'kidlaganidek, inson tafakkuri ijtimoiy muhit orqali shakllanadi [8]. Bugungi kunda bu muhitning muhim qismi raqamli makon ekanligini hisobga olsak, ta'lim o'quvchini shu muhitda to'g'ri yashashga o'rgatishi zarur.

2. Qadriyatlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash

Qadriyatlar nazariy tushuntirish orqali emas, balki amalda boshdan kechirilganda mustahkam shakllanadi. Agar o'quvchi hurmat, mas'uliyat yoki hamkorlik haqida faqat eshitsa, bu bilim bo'lib qoladi; agar u buni faoliyatda qo'llasa, bu shaxsiy fazilatga aylanadi. Shu sababli ta'limda quyidagilar muhim:

Muammoli vaziyatlar — real hayotga o'xshash pedagogik holatlar orqali axloqiy qaror qabul qilishni o'rgatish.

Loyihaviy faoliyat — jamoada ishlash, mas'uliyatni bo'lishish, natija uchun javob berish orqali ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish.

Ijtimoiy tashabbuslar — ekologik, madaniy yoki xayriya loyihalarida ishtirok etish orqali insonparvarlikni rivojlantirish.

Bu yondashuv qadriyatni abstrakt tushunchadan chiqarib, uni shaxsiy tajribaga aylantiradi.

3. Milliy identitetni zamonaviy shaklda ifodalash

Bugungi yosh avlod qadriyatlarni an'anaviy shaklda emas, balki zamonaviy ifodada tezroq qabul qiladi. Shuning uchun milliy madaniyatni o'rgatishda eskicha didaktik usullar emas, balki kreativ yondashuvlar zarur. Bularga yaqqol misol qilib, milliy meroslarimizni zamonaviy dizayn va vizual madaniyat orqali namoyish etishni aytak bo'ladi. Ya'ni, tarixiy obidalarimiz, arxeologik hamda ilmiy-ijod muzeyleriga jamoaviy ekskursiyalar uyushtirishni misol qilsak bo'ladi. Shu bilar birga, o'quvchilarga tariximiz va an'analalarimizni ko'rsatadigan video, prezentatsiya, startup g'oyalar kabi kreativ loyihalarni berish ham qadriyatlarni zamonaviy ko'rinishda mustahkamlashga yordam beradi. Natijada yoshlar qadriyatni "o'tmish qoldig'i" sifatida emas, balki o'z hayotiga daxldor, zamonaviy va foydali hodisa sifatida qabul qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli davr va global axborot oqimi sharoitida ta'lim tizimi oldida yangi vazifa turibdi: yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish. Axborotning tez va katta hajmda tarqalishi, virtual muloqotning kengayishi, shuningdek, turli media mahsulotlar orqali qadriyatlarni qabul qilish shaklining o'zgarishi — barcha shu jarayonlarning amaliy ifodasidir. Transformatsiya nafaqat qadriyatlarning mazmunan boyishi va zamon talablariga moslashuvini anglatadi, balki ayrim hollarda ziddiyat va qarama-qarshiliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Demak, qadriyatlar transformatsiyasi inqiroz emas, balki ongli va ilmiy yondashuv asosida boshqarilganda, milliy o'zlikni mustahkamlovchi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. "O'zbekiston yoshlari", Toshkent, 2022, 34-bet
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Elyor Oripov "Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi zarurati" file:///C:/Users/user/Downloads/yangi-o-zbekistonda-qadriyatlar-transformatsiyasi-zarurati%20(1).pdf
4. Lévi-Strauss, Claude. The Savage Mind (La Pensée sauvage). Paris – University of Chicago Press, 1962/1966, sah. 252.
5. M.J.Mutalipova. Xalq pedagogikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,160 bet.
6. Nigora Saydaliyeva "Globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi va gender tenglik muammosi" <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-68-74>
7. Sztompka P. Sociology of Social Change. – Oxford: Blackwell Publishing, 2005
8. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press.
9. Волков Г.Н. Этнопедагогика. -Т.: Фан, 2000
10. Dilbar, K., Toshmurodova, M., Anormatovna, N. Y., Kazakovna, K. M., Babajanova, F. F., & Yusufovna, S. D. (2024, December). Quantitative Analysis and Algorithmic Enhancement of Semantic Coherence in Multi-domain Automated Information Processing Systems. In Conference on Internet of Things and Smart Spaces (pp. 128-139). Cham: Springer Nature Switzerland.
11. Xidirova, M. Q., & Raxmonqulova, D. D. (2025). TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 3(2), 72-75.
12. Qazakhovna, K. M. (2024). ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON HEUTAGOGICAL APPROACHES. Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-1), 178-189.